



TERMIZ IQTISODIYOT VA  
SERVIS UNIVERSITETI

# TISU ILMIY TADQIQOTLARI XABARNOMASI

ILMIY-USLUBIY JURNAL  
ISSN 2992-9016

№1/2026

**Muassis:**  
TERMIZ IQTISODIYOT VA  
SERVIS UNIVERSITETI

**TISU ilmiy tadqiqotlari xabarnomasi**  
**Ilmiy-uslubiy jurnal**

**Bosh muharrir:**

Sattarov Abdusamat  
Umurqulovich

**Bosh muharrir o'rinbosari:**

Qobulov Eshbolta Atamuratovich

**Mas'ul kotib:**

Turayev Baxtiyor Ergashevich

**Dizayner:**

Meyliqulov Shahboz  
Xolmamatovich

**Jurnal bir yilda to'rt marotaba**  
**nashr etiladi**

Jurnal O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligining 2023-yil 1-martdagi № 066379-raqamli guvohnomasi bilan ro'yxatga olingan va O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2025-yil 8-maydagi 370/5-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan hamda iqtisodiyot fanlari bo'yicha dissertatsiyalarning asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

Jurnal "Termiz Publishing center" MCHJ bosmaxonasida chop etildi.

Bosishga ruxsat etildi:

31.03. 2026.

Qog'oz bichimi: 60x84 1/8

"Times New Roman" garnituruasi.

Ofset bosma.

Ofset bosma usulida bosildi.

Shartli bosma tabog'i: 11.

Adadi 100 nusxa.

Bahosi kelishilgan narxda.

Buyurtma № 4.

Jurnalning elektron shakli bilan

<https://scientific.tues.uz>

web saytida tanishish mumkin.

**Tahririyat manzili:**

Termiz sh., "Yulduz" MFY,  
"Ibn Sino" ko'chasi, 38B-uy.

## TAHRIR HAY'ATI A'ZOLARI:

Ixtisham Ul-Haq – i.f.d., prof. (Pokiston)  
L. Narrada Gamage – i.f.d., prof. (Shri Lanka)  
Xudoyqulov S.K. – i.f.d., prof.  
Pardayev J.M. – i.f.f.d., (PhD). dots.  
Toshqulov A.H. – i.f.d, prof.  
Absamatov A.E. – i.f.d., dots.  
Ruzmetov B. – i.f.d. prof.  
Abdullayev I.S. – i.f.d., prof.  
Ro'ziyev O.A. – i.f.n., dots.  
Otamurodov Sh.N. – i.f.d., dots.  
Shodiyev A.A. – i.f.d., dots.  
Bakirov P.U. – f.f.d., prof.  
Qodirov U.D. – p.f.d., prof.  
Turopova S.K. – f.f.d., dots.  
Mamadjanova T.A. – i.f.f.d. (PhD), dots.  
Jurayev X.A. – i.f.f.d. (PhD), dots  
Yarmatov Sh.CH. – i.f.f.d (PhD).  
Amonov M.O. – i.f.f.d. (PhD).  
Absamatov As.E. – i.f.f.d (PhD)  
Rahmatullayev B.Ch. – i.f.f.d. (PhD).  
Xoliyorov E.Ch. – f-m.f.n., dots.  
Esanov A.A. – f.f.f.d. (PhD), dots.  
Xudoyberdiyev U.T. – t.f.f.d. (PhD)  
Namozov G'.Sh. – i.f.f.d. (PhD), dots v.b.  
Xayrullayev I.N. – f-m.f.n., dots.  
Bozorov S.B. – f.f.f.d. (PhD)  
Sattarova Y.A. – f.f.f.d. (PhD), dots.  
Eshkurbanov S.B. – t.f.f.d. (PhD), dots.  
Saloxitdinova N.M. – p.f.f.d. (PhD), dots.  
Madiyeva M.Y. – f.f.f.d. (PhD), dots.  
Xakimov Z.I. – i.f.f.d. (PhD), dots.  
Yormatov F. J. – t.f.n., dots.  
Xoshimxo'jayeva M. –f.f.f.d. (PhD), dots.  
Ismoilov B.T. – p.f.f.d. (PhD), dots.  
Salomov G'. Y. – p.f.f.d. (PhD), dots.  
Uralova O. P. – f.f.d (DSc), dots.  
Xolov O.Ch. – p.f.f.d. (PhD), dots.  
Usmonov M. Q. – p.f.f.d. (PhD), dots.  
Abdusamatov A.S. - p.f.f.d. (PhD). dots.  
Norkulova Sh. T. – f.f.f.d. (PhD)  
Shoturayev J. – p.f.f.d. (PhD).  
Abduraxmanov A.Y. – t.f.f.d. (PhD).

# MUNDARIJA

**N.A. ABDURAIMOVA, M.N. KARIMOVA**

Tadbirkorlik subyektlarida moliyalashtirishni takomillashtirish asosida aholi bandligini ta'minlashning iqtisodiy tahlili.....5

**N.A. ABDURAIMOVA, M.T. RO'ZIYEVA**

Xo'jalik yurituvchi subyektlarning investitsiya loyihalarini moliyalashtirishning amaldagi holati tahlili.....10

**G.A. AXMETOVA**

O'zbekiston iqtisodiyotida investitsiyalarning iqtisodiy samaradorligini baholash omillari.....16

**S.R. BOYPO'LATOV**

Sanoat korxonalarida mehnat unumdorligini oshirishda innovatsion va raqamli texnologiyalarning roli.....21

**M.SH. CHORIYEVA**

Eksport salohiyatidan samarali foydalanish orqali iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish omillari.....26

**N.X. DO'SMUXAMEDOVA**

Nodavlat notijorat tashkilotlarida xarajatlar hisobini samarali yuritish omillari.....32

**B.A. ERDANAYEV**

Hududiy rivojlanishda drayver tarmoqlarning o'рни va ularni shakllantirishning nazariy-amaliy asoslari .....37

**N.N. ESHQULOVA, SH.B. ABDUNABIYEV**

Mamlakatimizda xizmat ko'rsatish sohasi va xizmatlar eksporti dinamikasi tahlili.....42

**M.X. KURBOSHEVA**

Tijorat banklari tomonidan tadbirkorlik subyektlarini kreditlashning nazariy-metodologik asoslari.....47

**O.J. MURODOV, H.I. G'ULOMOV**

Paxta tozalash korxonalarida moliyalashtirish-innovatsiya uzilishi: O'zbekiston agroklastarlari misolida empirik tahlil.....52

**SH.S. MUZRAPOVA, N.S. MUZRAPOVA**

Ekonometrika ta'limida interaktiv va amaliy matematika asosidagi yondashuvlarning samaradorligini baholash.....59

**Z.M. NORALIYEVA**

Qishloq joylarni rivojlantirish va aholi turmush sifatini yaxshilashda kichik biznes samaradorligini oshirish yo'llari.....66

**A.P. PARDAYEV**

O'zbekiston bank tizimini strategik transformatsiya jarayonining tahlili.....74

**J.R. SAYFIYEV**

Agile transformatsiya jarayonidagi kutilayotgan qiyinchiliklar va ularni bartaraf etish yo'llari.....77

**A.A. SHODIYEV, B.A. SHODIYEV**

Qurilish tashkilotlarida buxgalteriya hisobining o'ziga xos xususiyatlari.....82

**B.E. TURAYEV**

Iqtisodiy o'sish omillarini kobb-duglas modeli asosida ekonometrik baholash.....89

**Z.I. XAKIMOV**

Qishloq xo'jaligida innovatsion faoliyatni moliyalash yo'nalishlari.....93

**N.A. XAKIMOVA**

Fermer xo'jaliklarini moliyaviy qo'llab - quvvatlashda subsidiya amaliyotini takomillashtirish.....98

**SH.D. XAYDAROVA**

Maishiy xizmatlar sohasida tadbirkorlikni rivojlantirishning mintaqaviy xususiyatlari.....103

**L.L. XAYRULLAYEVA**

Iqtisodiy o'sishni ta'minlashda yashil iqtisodiyot yondashuvi va an'anaviy iqtisodiy model.....107

**Y.Z. XUDAYAROVA**

Asalarichilik samaradorligiga ta'sir etuvchi omillarni lasso regression modeli asosida tahlil qilish.....112

**R.A. XURRAMOV**

Hududlar kesimida eksport mahsulotlarining daromadlilik darajasini prody indeksi asosida statistik tahlil qilish.....116

**G.A. YUSUPOV**

Uzoq muddatli aktivlarda adaptiv amortizatsiya usuli.....122

# MUNDARIJA

## **SH.E.BOBOMURATOVA**

O'zbekiston va uning chegara mamlakat hududlarida til siyosati.....126

## **D.MUQUMOVA**

Ja'far Muhammad Termiziyning "Mendagi Boysun" she'ri: lingvistik tahlil.....134

## **D.B.IBODULLAYEVA**

O'zbek va ingliz tillaridagi teatr atamalarining chog'ishtirma tahlili.....137

## **Z.M.AMIRKULOVA**

"Panoh" hikoyasida tarixiy voqe'lik va badiiy talqin uyg'unlashuvi.....140

## **M.A.MEYLIQULOVA**

O'quvchilarda adabiy nutqiy kompetensiyani rivojlantirish masalalari.....144

## **SH.A.DONAYEVA**

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini o'qitishda 4K modelining ahamiyati.....147

## **G.E.TURAYEVA**

Texnologiyalashgan jamiyatda bo'lajak o'qituvchilarning axloqiy tarbiyasini shakllantirish .....150

## **M.X.XAYDAROVA**

Magistratura talabalarining mustaqil ta'lim faoliyatini tashkil etish.....153

## **F.A.XAYITOVA**

O'quvchilarda kreativ o'qish madaniyatini shakllantirishning milliy va jahon tajribasi.....157

## **D.R.YUNUSOV, J.I.UMIROV**

Fanni o'qitishda interfaol ta'lim metodlaridan foydalanish.....160

## **F.E.JOMONQULOVA, S.B.UZAKOVA**

Yoshlarni axborot xurujlaridan asrash, ularda axborot imunitetini shakllantirishda zamonaviy usullardan foydalanishning o'rni.....164

## **U.A.TASHBAYEVA**

Boshlang'ich sinflarda bolalar adabiyotini o'rgatishda mustaqil ta'lim topshiriqlaridan foydalanish metodikasi.....169

## **SH.T.TOSHOVA**

Talabalarda sog'lom turmush tarzi ko'nikmalarini takomillashtirishning didaktik imkoniyatlari.....173

## **R.I.ESONOVA, N.M.SALOXITDINOVA**

Boshlang'ich sinflarda tabiiy fanlarni 4K modeli asosida tashkil etish metodikasi va baholash mexanizmlari.....176

## **G.Z.ERMATOVA, G.E.TURAYEVA**

Elektron resurslar asosida ona tili va o'qish savodxonligi fanlarini o'qitish samaradorligini oshirish usullari.....180

## **D.D.NORQUVATOVA, N.M.SALOXITDINOVA**

STEAM yondashuvining boshlang'ich matematika ta'limidagi ahamiyati.....187

## **M.O.ZARIPOVA, N.M.SALOXITDINOVA**

Zamonaviy ta'limda baholash tizimlarining transformatsiyasi va uning ta'lim sifatiga ta'siri.....190

## **M.A.NORBOSHEVA, N.ABDIYEVA**

Giperaktiv bolalar bilan olib boriladigan psixologik-pedagogik ishlar.....194

## **G'A.MAMARAJABOV**

Mustaqillik yillarida O'zbekistonda hunarmandchilikni rivojlantirishning huquqiy asoslari va amaliy tajriba.....198

## **T.J.YARMATOV, F.J. YARMATOV**

Mahmud Qoshg'ariyning "Devonu Lug'atit Turk" asari etnofolklor manba.....202

## **SH.T.YAKUBOVA**

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ekologik madaniyat shakllantirishning ilmiy-nazariy asoslari.....205

## **N.B.RAUPOVA**

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining milliy qadriyatlarga bo'lgan munosabatini shakllantirish metodikasi ("Qutadg'u bilig" va "Hibat ul-haqoyiq" dostonlari namunalari misolida).....208

## **M.SH.BURIYEVA**

The role of code-switching in Uzbekistan's diverse society: identity and cultural exchange.....213

## **Z.M.ALLAYEV**

Traditions of dream interpretations in linguoculturology.....218

## **Z.F.ERGASHEVA, G'Y.SALOMOV**

Ona-tili va o'qish savodxonligi darslarida o'quvchilarning axborot bilan ishlash kompetensiyasini rivojlantirish metodikasi.....221

## **L.A.RAIMOV**

A comparative analysis of ai and human translation in advertising texts.....225

## **A.A.QARAQULOV**

Mengziyo Safarov qissalarida ona-tabiatning poetik manzarasi.....229

## **N.A.UMAROVA**

Boshlang'ich sinflarda tabiiy fanlar darslarida loyiha faoliyatini tashkil etish nazariyasi va metodikasi.....234

## **M.T.MENGNAROVA**

Ingliz va O'zbek tillaridagi rang komponentli maqollarda madaniy birliklarning ahamiyati.....238

## **I.B.JURAEV**

The effect of authentic materials on vocabulary acquisition in english classes.....242

## **D.A.BADALOV**

Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabalarining kasbiy kompetentligini rivojlantirishda, klaster metodida yondashish.....248

## **F.J. YARMATOV, T.J. YARMATOV**

Dostonchilik an'analari shakllanishining tarixiy asoslari.....252

## **M.O.BEGALIYEVA**

Pattakesar.....257

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti, Iqtisodiyot kafedrası o'qituvchisi

Xaydarova Shoxista Davranovna

E-mail: khaydarova.tues@gmail.com

### MAISHIY XIZMATLAR SOHASIDA TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISHNING MINTAQAVIY XUSUSIYATLARI

#### ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada maishiy xizmatlar sohasida tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishning mintaqaviy xususiyatlari ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqotda maishiy xizmatlar sohasining hududiy rivojlanishiga ta'sir etuvchi iqtisodiy, demografik, infratuzilmaviy va institutsional omillar kompleks yondashuv asosida o'rganiladi. Mintaqalar kesimida tadbirkorlik subyektlari faolligining farqlanishi, xizmatlar tarkibi va sifati, shuningdek, aholi ehtiyojlari bilan bog'liq nomutanosibliklar ochib beriladi. Maqolada statistik va tahliliy usullar yordamida mintaqaviy xususiyatlarning tadbirkorlik rivojiga ta'siri asoslab berilib, jadval orqali hududlararo solishtirma tahlil amalga oshiriladi. Tadqiqot natijalari maishiy xizmatlar sohasida hududiy rivojlanish strategiyalarini ishlab chiqishda muhim ilmiy va amaliy ahamiyatga ega.

**Kalit so'zlar:** maishiy xizmatlar, tadbirkorlik, mintaqaviy rivojlanish, hududiy xususiyatlar, xizmatlar bozori, kichik biznes, infratuzilma.

### РЕГИОНАЛЬНЫЕ ОСОБЕННОСТИ РАЗВИТИЯ ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА В СФЕРЕ БЫТОВЫХ УСЛУГ

#### АННОТАЦИЯ

В данной статье с научно-теоретической и практической точек зрения анализируются региональные особенности развития предпринимательской деятельности в сфере бытовых услуг. В исследовании на основе комплексного подхода изучаются экономические, демографические, инфраструктурные и институциональные факторы, влияющие на территориальное развитие сферы бытовых услуг. Раскрываются различия в активности субъектов предпринимательства по регионам, структуре и качестве услуг, а также диспропорции, связанные с потребностями населения. С использованием статистических и аналитических методов обосновано влияние региональных особенностей на развитие предпринимательства, а также проведён межрегиональный сравнительный анализ в табличной форме. Результаты исследования имеют важное научное и практическое значение при разработке стратегий территориального развития сферы бытовых услуг.

**Ключевые слова:** бытовые услуги, предпринимательство, региональное развитие, территориальные особенности, рынок услуг, малый бизнес, инфраструктура.

### REGIONAL FEATURES OF ENTREPRENEURSHIP DEVELOPMENT IN THE HOUSEHOLD SERVICES SECTOR

#### ABSTRACT

This article analyzes the regional characteristics of the development of entrepreneurship in the field of household services from a scientific, theoretical and practical point of view. The study studies economic, demographic, infrastructural and institutional factors affecting the territorial development of the household services sector based on an integrated approach. The differences in the activity of business entities across regions, the composition and quality of services, as well as disparities related to the needs of the population are revealed. The article substantiates the impact of regional characteristics on the development of entrepreneurship using statistical and analytical methods, and a comparative analysis of regions is carried out using tables. The results of the study are of significant scientific and practical importance in developing regional development strategies in the field of household services.

**Keywords:** household services, entrepreneurship, regional development, territorial characteristics, service market, small business, infrastructure.

## KIRISH

Bozor iqtisodiyoti sharoitida xizmatlar sohasi, xususan, maishiy xizmatlar sektori iqtisodiyotning eng tez rivojlanayotgan va ijtimoiy ahamiyatga ega tarmoqlaridan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. Aholining kundalik ehtiyojlarini qondirish, bandlikni ta'minlash va daromadlar manbaini kengaytirishda maishiy xizmatlar muhim o'rin tutadi. Shu bilan birga, ushbu sohaning rivojlanish darajasi mamlakat hududlari bo'yicha bir xil emasligi bilan ajralib turadi. Ayrim mintaqalarda maishiy xizmatlar bozori yuqori darajada shakllangan bo'lsa, boshqa hududlarda ushbu sohaning rivoji infratuzilma, kapital va malakali kadrlar yetishmasligi bilan cheklanmoqda.

Maishiy xizmatlar sohasida tadbirkorlikning mintaqaviy xususiyatlarini o'rganish zarurati aynan shu nomutanosibliklar bilan bog'liqdir. Hududiy rivojlanish darajasi, urbanizatsiya sur'atlari, aholining daromadlari va iste'mol madaniyati tadbirkorlik faoliyatining yo'nalishi va ko'lamini belgilab beradi. Shu sababli, mazkur maqolada maishiy xizmatlar sohasida tadbirkorlikni rivojlantirish masalasi hududiy kesimda chuqur tahlil qilinadi va mintaqaviy omillarning ta'siri ilmiy asosda ochib beriladi.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Maishiy xizmatlar sohasida tadbirkorlikni rivojlantirish masalasi iqtisodiy adabiyotlarda xizmatlar iqtisodiyoti, kichik biznes va hududiy rivojlanish nazariyalari doirasida o'rganilgan. Xorijiy tadqiqotlarda xizmatlar sohasining iqtisodiy o'sishdagi roli, ayniqsa, mahalliy bozorlarning rivojlanishida kichik tadbirkorlikning ahamiyati keng yoritiladi. P. Drucker va J. Schumpeter ishlarida tadbirkorlik innovatsion faoliyat va hududiy raqobatbardoshlikning muhim omili sifatida qaraladi.

Postsovet makonidagi iqtisodiy tadqiqotlarda maishiy xizmatlar asosan aholi bandligi va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlovchi sektor sifatida talqin etiladi. O'zbekistonlik iqtisodchi olimlar ishlarida esa maishiy xizmatlar sohasining rivojlanishi kichik biznesni qo'llab-quvvatlash, hududiy iqtisodiy siyosat va infratuzilmani rivojlantirish bilan uzviy bog'liq holda o'rganiladi. Shu bilan birga, mavjud adabiyotlarda mintaqaviy xususiyatlarning xizmatlar sohasidagi tadbirkorlik faoliyatiga ta'siri yetarlicha tizimli yoritilmaganligi ushbu tadqiqotning dolzarbligini oshiradi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Tadqiqot

metodologiyasi tizimli va kompleks yondashuvga asoslangan bo'lib, unda iqtisodiy tahlil, taqqoslash, statistik umumlashtirish va mintaqaviy tahlil usullaridan foydalanildi. Maishiy xizmatlar sohasida tadbirkorlik faoliyati hududiy kesimda o'rganilib, mintaqalarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasi asosiy tahliliy mezon sifatida qabul qilindi.

Metodologik yondashuv doirasida aholining zichligi, daromadlar darajasi, infratuzilma holati va xizmatlarga bo'lgan talab ko'rsatkichlari tadbirkorlik faolligi bilan solishtirildi. Shuningdek, mintaqalarda faoliyat yuritayotgan maishiy xizmatlar subyektlarining tarkibi va ixtisoslashuvi tahlil qilindi. Jadval asosida hududlararo farqlar aniqlanib, mintaqaviy xususiyatlarning tadbirkorlik rivojiga ta'siri izchil asoslab berildi.

Mazkur tadqiqot metodologiyasi hududiy iqtisodiyot va xizmatlar sohasida tadbirkorlikni rivojlantirish bo'yicha zamonaviy ilmiy yondashuvlarga tayangan holda ishlab chiqildi. Tadqiqotda maishiy xizmatlar sohasi alohida tarmoq sifatida emas, balki hududiy ijtimoiy-iqtisodiy tizimning tarkibiy qismi sifatida qaraldi. Shu sababli metodologik asos sifatida tizimli va kompleks yondashuv tanlandi, bunda mintaqaning demografik tuzilishi, urbanizatsiya darajasi, infratuzilma ta'minoti va iste'mol bozorining sig'imi o'zaro bog'liq holda tahlil qilindi.

Metodologiya doirasida mintaqalarni guruhlash usuli qo'llanilib, ularning iqtisodiy rivojlanganlik darajasi, aholi daromadlari va xizmatlar bozoridagi faolligi asosiy mezonlar sifatida qabul qilindi. Statistik tahlil va qiyosiy baholash yordamida hududlarda maishiy xizmatlar sohasida faoliyat yuritayotgan tadbirkorlik subyektlarining soni, ixtisoslashuvi va xizmatlar tarkibi o'rganildi. Shuningdek, normativ-huquqiy hujjatlar, davlat dasturlari va hududiy rivojlanish strategiyalarining mazmuniy tahlili amalga oshirildi. Ushbu metodologik yondashuv maishiy xizmatlar sohasida tadbirkorlik rivojiga ta'sir etuvchi mintaqaviy omillarni aniqlash va ularni tizimli ravishda baholash imkonini berdi.

**Tahlil va natijalar.** O'tkazilgan tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, maishiy xizmatlar sohasida tadbirkorlikning rivojlanish darajasi mintaqalar bo'yicha sezilarli farqlanadi. Yirik shaharlarda va iqtisodiy jihatdan rivojlangan hududlarda xizmatlar turi va sifati yuqori bo'lib, tadbirkorlik subyektlari soni ko'p. Aksincha, qishloq va chekka

hududlarda maishiy xizmatlar cheklangan bo'lib, asosan an'anaviy xizmat turlari ustunlik qiladi. Quyidagi jadval mintaqalar bo'yicha maishiy xizmatlar sohasida tadbirkorlik rivojlanishining umumiy ko'rsatkichlarini aks ettiradi:

1-jadval  
Mintaqalar bo'yicha maishiy xizmatlar sohasida tadbirkorlik rivojlanishi darajalari.

Mintaqa turi	Tadbirkorlik subyektlari soni	Xizmatlar xilma-xilligi	Infratuzilma darajasi
Yirik shaharlar	Yuqori	Yuqori	Rivojlangan
O'rta shaharlashgan hududlar	O'rtacha	O'rtacha	Qoniqarli
Qishloq hududlari	Past	Cheklangan	Yetarli emas

1-jadvaldan ko'rinadiki, infratuzilma va aholi daromadlari darajasi maishiy xizmatlar sohasida tadbirkorlik faolligini belgilovchi asosiy omillardan biri hisoblanadi.

O'tkazilgan tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, maishiy xizmatlar sohasida tadbirkorlikning rivojlanish darajasi hududlar kesimida sezilarli tafovutlarga ega. Iqtisodiy jihatdan rivojlangan va yuqori urbanizatsiyalashgan mintaqalarda xizmatlar bozorining diversifikatsiyasi yuqori bo'lib, tadbirkorlik subyektlari asosan murakkab va yuqori qo'shilgan qiymatga ega xizmat turlariga ixtisoslashgan. Bunday hududlarda aholining to'lov qobiliyati va iste'mol madaniyati yuqori bo'lgani sababli, raqobat muhitining shakllanishi ham tezroq amalga oshadi.

Aksincha, qishloq va chekka hududlarda maishiy xizmatlar sohasida tadbirkorlik asosan an'anaviy va zarur ehtiyojlarni qondirishga yo'naltirilgan xizmat turlari bilan cheklanib qolmoqda. Natijalar shuni ko'rsatadiki, bu hududlarda xizmatlar bozorining torligi, infratuzilmaning yetarli darajada rivojlanmagani va moliyaviy resurslarga kirish imkoniyatlarining cheklanganligi tadbirkorlik faolligini pasaytiruvchi asosiy omillar hisoblanadi. Shu bilan birga, ayrim hududlarda davlat qo'llab-quvvatlash mexanizmlarining samarali joriy etilishi xizmatlar sohasida yangi tadbirkorlik subyektlarining paydo bo'lishiga ijobiy ta'sir ko'rsatayotgani aniqlandi.

Natijalar tahlili shuni ko'rsatadiki, maishiy xizmatlar sohasida tadbirkorlikni rivojlantirishda yagona yondashuv samarali emas. Har bir mintaqaning iqtisodiy, demografik va madaniy xususiyatlarini hisobga olgan holda differensial siyosat yuritish zarur. Yirik shaharlarda innovatsion va yuqori qo'shilgan

qiymatga ega xizmatlarni rivojlantirish ustuvor bo'lsa, qishloq hududlarida asosiy maishiy ehtiyojlarni qondiruvchi xizmat turlarini kengaytirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Shuningdek, muhokama jarayonida aniqlanishicha, hududiy tadbirkorlik muhitini yaxshilash, kredit va moliyaviy resurslarga kirish imkoniyatlarini kengaytirish, kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish maishiy xizmatlar sohasining barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi. Bu jihatlar hududiy iqtisodiy siyosat bilan uzviy bog'liq holda amalga oshirilishi lozim.

Natijalarni muhokama qilish jarayonida maishiy xizmatlar sohasida tadbirkorlikni rivojlantirishda mintaqaviy yondashuvning zarurligi yana bir bor tasdiqlandi. Amaliy tajriba shuni ko'rsatadiki, barcha hududlar uchun yagona rivojlanish modeli samara bermaydi. Har bir mintaqaning iqtisodiy salohiyati, demografik tuzilishi va madaniy xususiyatlarini inobatga olgan holda moslashuvchan strategiyalar ishlab chiqilishi lozim.

Muhokama davomida aniqlanishicha, yirik shaharlarda xizmatlar sohasida innovatsion texnologiyalar, raqamli platformalar va servis sifatini oshirish ustuvor ahamiyatga ega bo'lsa, qishloq hududlarida birlamchi maishiy xizmatlar tarmog'ini kengaytirish va ularning hududiy mavjudligini ta'minlash muhimroq hisoblanadi. Shu bilan birga, mintaqalarda kadrlar tayyorlash tizimini xizmatlar sohasi ehtiyojlariga moslashtirish, mahalliy tadbirkorlarning tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash va infratuzilmani rivojlantirish masalalari ham dolzarb bo'lib qolmoqda.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, maishiy xizmatlar sohasida tadbirkorlikni rivojlantirish mintaqaviy xususiyatlarni hisobga olgan holda amalga oshirilishi zarur. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasi, infratuzilma holati va aholi ehtiyojlari xizmatlar sohasidagi tadbirkorlik faoliyatining asosiy belgilovchi omillaridir. Shu bois mintaqaviy yondashuvga asoslangan strategiyalarni ishlab chiqish maishiy xizmatlar sohasining samarali va barqaror rivojlanishini ta'minlashga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, maishiy xizmatlar sohasida tadbirkorlikni rivojlantirish mintaqaviy xususiyatlarni chuqur hisobga olgan holda amalga oshirilishi zarur bo'lgan murakkab ijtimoiy-iqtisodiy jarayondir. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, hududlarning iqtisodiy



rivojlanganlik darajasi, infratuzilma holati va aholining ehtiyojlari xizmatlar sohasidagi tadbirkorlik faolligining asosiy belgilovchi omillari hisoblanadi. Shu sababli, hududiy tafovutlarni kamaytirishga qaratilgan, differensial va uzoq muddatli siyosat yuritish muhim ahamiyat kasb etadi.

Mazkur tadqiqot asosida shunday xulosaga kelish mumkinki, maishiy xizmatlar sohasida tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash nafaqat iqtisodiy o'sishni ta'minlaydi, balki hududlarda bandlikni oshirish, aholining turmush darajasini yaxshilash va ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlashga xizmat qiladi. Shu bois mintaqaviy rivojlanish strategiyalarida maishiy xizmatlar sohasiga alohida ustuvor yo'nalish sifatida e'tibor qaratilishi ilmiy va amaliy jihatdan asosli hisoblanadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. Shodiev T. Sh. Xizmatlar iqtisodiyoti. - Toshkent: Iqtisod-Moliya, 2021. - 398 b.
2. Абдуллаев Ё. А. Кичик бизнес ва тadbirkorlik. - Тошкент: Фан, 2011. - 360 б.
3. Друкер П. Инновации и предпринимательство. - М.: Вильямс, 2018. - 384 с.
4. Немчинов В. С. Региональная экономика. - М.: Экономика, 2017. - 412 с.
5. Шумпетер Й. Теория экономического развития. - М.: Прогресс, 2016. - 455 с.